



## XORAZM DIYORINING "OLTIN DARVOZASI": HAZORASP VA MUDOFAA QAL'ALARINING O'CHMAS TARIXI

**Jiyanov Karimboy Omon o'g'li**

*Qoraqalpoq davlat universiteti 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Xorazm viloyatining qadimgi poytaxti, hozirda rivojlangan tumanlaridan biri bo'lmish Hazorasp tumanining asrlar oshib ham qad ko'tarib turgan tarixiy qal'alari va ularning 3000 yillik tarixi va afsonalarga aylanib ketgan xaqiqatlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Hazorasp, qal'ayi Sulaymon, Kaparos, ming otliq, Elharos, "Atar spenta" (Muqaddas olov), Hazoraspiylar sulolasi, Pitnak.

Hazorasp – jahon xalqlari sivilizatsiyasida muayyan o'rin tutgan qadimiy o'lka. Xorazm vohasining asori-aqiqa qal'alaridan biri. Uning tarixi Sharqning mumtoz shaharlari Bobil, Rum (Istanbul), Quddus, Makka, Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlaridanda qadimiyroqdir. Hazorasp – Buyuk ipak yo'li chorrahalarida joylashgan va ko'hna Xorazm elining benazir istehkom qalqoni. Shuning uchun ham bo'lsa kerakki, dunyoning buyuk shoir va olimlari Ibn Sino, Abdurazzoq Samarqandiy, Rashididdin Vatvot, Sa'diy Sheroziy, Antoniy Jinkenson, Xerman Vamberi va boshqalar Hazorasp haqida o'zlarining yurak so'zlarini yozib qoldirganlar.

*Samarqand sayqali ro'yi zamin ast,  
Buxoro quvvati Islomi din ast,  
Hazorasp qal'ai ho'b joyi mahkam,  
Xiva Firdavsil rabbil alamin ast.*

Ya'ni Samarqand yer yuzining eng go'zal shahri, Buxoro Islom dinining quvvati, Xiva baxt-ikboli kulgan qal'a, Hazorasp esa metin-mustaxkam istehkomdir. Uni hech kim zabt eta olmaydi, deb yozgan edi sharqning buyuk bir shoirlaridan biri. Bu qal'a jahonning buyuk allomalari Muhammad Muso al-Xorazmiy, Ibn Sino, al-Beruniy, Rashididdin Vatvot, Sakkokiy, Hazoraspiy, Umidiy, Hayoliy kabi shoir va olimlar yashab ijod qilganlar yoki qo'nib mehmon bo'lganlar, suhbat davralari qurganlar, munozaralar o'tkazganlar.

Hazorasp ming yillar davomida Xorazmshohlar davlati va Xiva xonligining harbiy mudofaa qo'rg'oni, ma'lum davrlarda poytaxti, savdo-sotiq rastasi, elchilarni kutib oladigan qarorgoh bo'lgan. Mashoiqlar qal'ani xaqli ravishda "Xorazmning oltin darvozasi" deb ta'rifu- tavsif qiladilar. Uning geografik jihatdan qulay mintaqada Sharq bilan G'arbni birlashtirib turgan savdo yo'lida, xususan Amudaryo bo'ylarida joylashganligi yuqoridagilarni yana bir bor isbotlaydi.

XVI asr o'rtalarida Moskva orqali Urganch, Xiva va Hazoraspga tashrif buyurgan Buyuk Britaniya elchisi A. Jinkensonning o'z qirolchasiga va podsho Ivan Grozniyga jig'ali telpak, po'stin va dur-gavharlar bilan bezatilgan (naqshlangan) Hazorasp hanjarini sovg'a tariqasida Moskva va Londonga olib borganini butun dunyo biladi.





### Hazorasp nomining kelib chiqishi va ma'nosi

Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq mamlakatlarida Hazor, Hazorasp, Hazor-Mardon, Hazar, Leon, Hazarek, Hazoriy, Ozariy kabi qal'a, joy, dengiz, qabila, urug', xalq nomlarini uchratishi mumkin. Ularning qaysi biri Hazorasp nomiga bevosita aloqador ekanligini aniqlash foydadan holi bo'lmaydi. Hazorasp nomining kelib chiqishi va asl ma'nosi tarix va tilshunoslik fanlarida turlicha qarashlari mavjud. Hazorasp tarixi va tilini ilmiy asosda o'rgangan va shu to'g'risida yirik monografiyalar yozgan mashhur olimlar Yahyo G'ulomov, S.P. Tolstov, Herman Vamberi, F. Abdullayev, B.G'apurov va boshqalar "Hazorasp" atamasini ikki qismdan – Hazor(ming) va asp(ot) so'zlaridan tashkil topgan deb hisoblaydilar.


Hazorasp qal'asi tarixiga oid bir afsona keltirilgan. Afsonada aytilishicha: "Hazorasp qal'asini bahaybat dev qurgan emish. Qal'aga ming qanotli (uchar) otlar suv ichgani kelar ekan. Dev ularni aldov yo'li bilan qo'lga tushirib, qanotlarini qirqqan va o'ziga o'rgatib olgan. Ushbu afsonaviy uchar otlar tufayli qal'aga **Hazorasp**, ya'ni "ming ot" degan nom berilgan ekan." [Ya. G'ulomov "Xorazmning sug'orilish tarixi" T.: 1959-y, 149-bet]

Yu. Jumanazarov Hazoraspni qabila nomi bilan bog'laydi, ya'ni "Hazora – os bo'lib, "os qabilasi" degan ma'noni anglatadi. Hazorasp formasi esa " ming ot" asfonasidan vujudga kelgan", deydi. Professor Z. Dosimov ham ushbu fikrni quvvatlaydi va shunday yozadi: "Os qabilasining Xorazm hududida yashaganligi haqida ma'lumotlar bor. Shuningdek, "Os qal'a", "Oslar", "Osyon" kabi toponimlarning mavjudligi bu fikrni tasdiqlaydi. Ammo Beruniyning yozishicha, Os qabilalari eramizdan avvalroq shimolga ko'cha boshlagan. [Beruniy, I. III, 95] Shunday ekan ilk o'rta asrlarga oid asrlarga oid bo'lgan Hazorasp qal'asini oslar shaxri bo'lganiga ishonish qiyin. (**Izoh: Hazorasp qal'asi ilk o'rta asrlarda qurilmagan, aksincha uning qurilishi haqidagi ma'lumotlar eramizdan oldingi asrlarga, ya'ni Zardushtiylik dinining ilk paydo bo'lishidan buyon qad ko'tarib turganidan dalolat beradi. Hazoraspning zardushtiylik diniga aloqadorligi haqida quyida to'xtalib o'tamiz.**)

"Hazar" so'zi "Avesto"da "Otar" ( "O" cho'ziq, "t" yumshoq) bo'lib, o't-olov demakdir. Bu so'zdagi "t" yumshoq talaffuzda "z" ga o'tishi fonetik hodisasiga uchragan va "azar" shakliga kelgan. So'zning tub ma'nosi islom dini sharoitida unutilgach bu so'z fors-tojik tilidagi "hazor" – "ming" asosida hato talqin qilingan. Natijada tilimizda "g'alati-mashhur" lingvistik hodisa yuz bergan.

So'zning asl ma'nosiga qayti izohlasak, "Hazar" - Otar ya'ni otash-olov demaktir. So'zning ikkinchi qismidagi "asp" komponenti "ot" emas, balki, "aspan" – "muqaddas" so'zining tub ma'nosi, o'zak qismidir.

Otash – Otar – Ozar – Hazar kabi o'zgarish qatoridagi tarixiy jarayon boshqa so'zlarda ham uchqaydi. Masalan, qadimiy Aturpatkan o'lkasining hozirgi nomi Ozarbayjondir. Yana bir misol, xushbo'y hid tarqatib yonuvchi shifobaxsh o'simlik – isiriqning o'zbek shevalaridagi nomi – hazaraspan – qadimgi aturspend so'zidan kelib chiqqan. Bu ham "muqaddas olov" demaktir. Toponimlarning ma'nosi agar Xorazm





zardushtiylik dinning asl vatani ekanligini hisobga olsak, “muqaddas olov” bilan bog'liq ekanligi haqiqatga yaqinroq. [Hazorasp tarixi, Urganch.: 1998-y 10-bet]


“Mazdaizm O'rta Osiyodan va hatto Xorazmdan kelib chiqqan... Bundaxishning birinchi muqaddas olovni “Adar Xurro”ni Jamshid Xorazmda yoqqan degan fikri haqdir. Adar-Otar-Otash o't olov, Xurro- quyosh demakdir. [Ya. G'ulomov, “Xorazmning sug'orilish tarixi” T.: 1959-y, 47-bet].

**(Izoh:** Bundaxishning birinchi muqaddas olovi “Adar Xurro”ni Jamshid aniqrog'i Hazoraspda yoqadi va bundan kelib chiqadiki, Hazorasp – muqaddas olov qal'asi, quyoshga sajda qiluvchilar mamlakati deganidir.)

Mashhur olimlarning aksariyati, “Avesto” matnlari Ahamoniylar hukmronligiga qadar Xorazm boshchiligida vujudga kelgan qadimgi davlatlar ittifoqi hududida sinfsiz jamiyatdan sinfli jamiyatga o'tish jarayonida paydo bo'lgan”, deb hisoblaydilar. Katta Xorazm muammosi aslida yunon tarixchisi Geradot asarlarida aks etgan deb hisoblanadi. Chindan ham tarix faning otasi Geradot tozganidek, “Ariylar yurti”, “Ariylar kengligi”, katta Ares daryosi (Tejan) bo'lishi ehtimoldan uzoq emas. “Avesto” kitobida qadimiy Xorazm, jumladan Hazorasp sarhadlarida joylashgan ko'plab tarixiy va geografik nomlar uchraydi. Masalan, *Ardva* – Amudaryo, *Vurukash* – Orol dengizi, *Mazdu Bast* – Tuyamo'yinda joylashgan eski to'g'on, *Vayangan* – Xushtimitan (Anbarmonoq qishlog'i), *Ahriman g'ori* – Sulton Sanjar tog'i yonbag'irlaridagi teshik toshlar, “*uchar otlar*”, “*keng yaylovlar*” “*qahraton qish*”, “*jazirama issiq*”, “*asaldek shirin mevalar*” *tarifida tuman tarixi, geografiyasi, moddiy boyliklari aks etgan.*

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi kunimizdan 20-30 ming yil muqaddam Amudaryo Qoraqum orqali oqib kaspий dengiziga quyilgan. Keyinchalik tabiiy kuchlarning qarshiligiga uchrab, o'z o'znini Xorazm tomon burgan va natijada Orol dengizi paydo bo'lgan. S.P.Tolstovning taxmin qilishicha, Quyi Amudayo etaklarida, xususan Tuyamo'yin mintaqasida ibtidoiy odamlar qo'nim topganiga 15 ming yil bo'lgan. “Misr – Nil daryosining tuhfası” (Geradot) bo'lganidek, Xorazm ham Amudaryoning in'omidir. “Amudaryoning 2056-km da Tuyamo'yin va undan ancha yuqorida *Duldurotlagan dara* joylashgan. Daraning uzunligi bir kilometr bo'lib, bu yerda Amudaryo o'zani 358 metr (168 sarjin)gacha torayadi. Bu dara Xorazmliklar orasida juda mashhur bo'lib, uning bir nechta nomi bor: 1) Duldur otlagan (Ali ibn Abutolibning jangovor oti Duldur sakrab o'tkan joy; 2) Dahani sher (Sher dahani) bu nom XI asrda Beruniy asarining arabcha tarjimasi “Famm-al-asad”da tilga olinadi. Bu nom Xorazm axolisi orasida hozirgi vaqtda “Doni sher” shaklida keng tarqalgandir; 3) Beruniy bu daraning uchinchi nomini “Sakr-ash-shayton” – “Shayton to'g'oni deb keltiriladi. Fikrimizcha, “Sakr-ash-shayton” nomi hozirgi “Jigarband” nomi ya'ni “Jigar to'g'oni” bilan bog'liq.

Amudaryo bu daradan chiqqanidan keyin, ancha orollar hosil qilib kengayadi va 45 kilometr oqqanidan so'ng yana uzun Tuyamo'yin darasiga kirib keladi. Tuyamo'yin ohaktosh va boshqa tog' jinslaridan tuzilgan, ilon izi bo'lib ketgan daradir. Tuyamo'yin





qismida Amudaryoning uzunligi yoy bo'ylab 21,3 km, xorda bo'ylab taxminan 7 kilometrga teng. [Ya. G'ulomov, Xorazmning sug'orilishi tarixi, T.: 1959-y, 21-bet].

Hazorasp hududlari Qoraqum sahrosi va Amudaryoning chap qirg'ogidagi qiradirlarga uchburchak shaklda kirib boradi. Bu yerda chap qirg'oqning qo'ltiqsimon yassi qum barxanlariga tutash mintaqada so'limgina Pitnak vodiysi ko'zga tashlanadi. Pitnak – vohaning yashil burchagi, suv darvozasi – Polvon, Toshsaqa kanallari, Tuyamo'yin suv ombori joylashgan oltin darvozasidir.

O'tmishda bu yerda "Oq alang yop", "Ulli yop", "Kichchi yop", "Sayot yop", "Sayit yop", "Shix yop", "Yakka chiqir yop" kabi ariq va kanallar bo'lgan. Ko'hna Polvon-Toshsaqa kanallari bir necha marta qayta ta'mirlangan va zamonning zayiliga qarab o'z hukmdorlari izmiga bo'y sundirilgan.

Endilikda tuman eski maydonlarini "Yangibozor" (eski Juvarhos yopi), "Ovshar yopi", "Karvak yopi", "Jangi ota yopi", "Muxomon yopi", "Hossa yopi" (Os-bo'lsa kerak), "Otaliq yopi", "Kirov yopi", "Juvondir yopi", "Xofiz ariq" nomli yoplar va "P-3", "P-4" kabi suv yo'llari ta'minlab turibdi. Ushbu yop, ariq va kanallarning paydo bo'lishi, qazuv, suv taqsimoti va soliqlari xususida keyinroq to'xtalamiz.

**Xulosa** qilib shuni aytishimiz mumkinki, Xorazm vohasining azaldan ma'lum-u mashhur bo'lib kelga va hozir ham o'z shuhratini yo'qotmagan qadimiy tumani Hazoraspni "tangrining nazari tushgan yurt" deb bilishimiz mumkin. Chunki bu o'lkaning tarixi va madaniyati juda qadimiy, ya'ni eramizdan oldingi 30 ming yildan buyon shakllanib kelmoqda. "Kalta minor madaniyati" davrida Hazorasp kuchli va boy Janubiy Xorazm o'lkasiga aylanadi. Bundan kelib chiqadiki, Hazoraspni biz bekordan: "*Hazorasp qal'ai ho'p joyi mahkam*" deb aytmaymiz. Hazoraspliklarning ko'ngli ochiq, mehnatsevar, ilmparvar va boy-badavlatdir. Hazoraspning qizlari chiroyda tengi yo'q pari sifat va o'g'lonlari haqiqiy alp, zabardast, devqomat va shu bilan birga kelishgan hushsuratdir. Bu diyorni hech bir yov qo'lga kirita olmagan, qal'asini ishg'ol qilolmagan. Shu sababdan ham Xorazmshohlar va Xiva xonlari "*Xorazmning kirish darvozasi Hazoraspdir. Agar Hazorasp ishg'ol qilinsa, Xorazmning qo'ldan ketganidir. Xorazm taqdiri Hazoraspliklar qo'lidadir!*", deb aytishgan. Ammo shu kunga qadar Hazorasp hech bir dushmanga yengilmagan va bundan keyin ham yengilmaydi. Hazoraspning afsonaviy qal'alari va qishloqlari haqida ikkinchi qismda to'laqonli o'rganamiz. Shu o'lkaning farzandi ekanimdan faxr va g'urur tuyaman! "Ming otlilar" diyori bu – bizning Hazorasp!

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ya. G'ulomov "Xorazmning sug'orilish tarixi" T.: 1959-y
2. "Hazorasp tarixi" Urganch.: 1998-y
3. Beruniy, "Tarixi Xorazm", I. III, 95

